RAQAMLI TALIMDA DARS TAHLILI VA UNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Toshmetova Gulnoza Sadriddinovna
“O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida zamonaviy dars talablari asosida darsni tahlil etish ko‘nikmasini malaka darajasiga chiqarish, darsni tahlil qilishda pedagogik tahlilning me’zonlari, darsni tashkil etishda qo‘yiladigan talablar, pedagogning kasbiy mahoratini tahlil qilashning o‘ziga hos pedagogik jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: an’anaviy dars, zamonaviy dars, tahlil, pedagogik tahlil, raqamli ta’lim, refliksiya, pedagogik takt, dars shakli, didaktika.

Abstract: The article describes the development of the skill of analyzing a lesson to the level of competence based on the requirements of a modern lesson. Abstract This article describes the development of the skill of analyzing a lesson to the level of competence based on the requirements of a modern lesson in the digital educational environment, criteria of pedagogical analysis when analyzing a lesson, requirements for organizing a lesson, unique pedagogical aspects of analyzing the professional skills of a teacher.

Keywords: traditional lesson, modern lesson, analysis, pedagogical analysis, digital education, reflection, pedagogical tact, lesson form, didactics.

“Zamonaviy tushunchasi” o‘tgan asrlarda ham qo‘llanilib kelingan. U ko‘proq “an’anaviy darslar”ning mazmunini boyitishga qaratilgan. Pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonining o‘zini qurishga xizmat qilishi, interfaol metodlarning tatbiq etilishi, talabalarning kichik guruhlarga bo‘linib faol faoliyat olib borishi, ularda mustaqil fikr rivojiga e’tibor qaratilishi, bir gap bilan aytganda, texnologik yondashuvtexnologiyasining joriy etilishi, “zamonaviy dars” tushunchasiga yangicha asos bo‘lib xizmat qildi. Bu haqida birinchi bobning uchala paragrafida ilmiy ma’lumotlar keltirildi.

Tadqiqotga oid izlanishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, “an’anaviy” tushunchasining mazmunida “noan’anaviy” atamasi shakllandi. An’anaviyga “o‘xshamaydi” degan bu tushuncha mazmunidan foydalangan o‘qituvchilar “endi biz “an’anaviy yondashuv”dan voz kechdik, an’anaviy metod va usullarni dars jarayoniga tatbiq etmaymiz”, - deb fikr bildirishdi.

Ikkinchidan, an’anaviy metod, usul va vositalar hamda jihozlar asosida “noan’anaviylar” yuzaga chiqdi. Qanday qilib an’anaviy metodlar hisoblangan kuzatish, suhbat, savol-javob, kitob bilan ishlash, sayohat, talabaning faoliyat mahsuli bilan tanishish kabilardan voz kechiladi? An’anaviy ham va noan’anaviyni ham o‘ziga yarasha inkor etib bo‘lmaydigan yutuq va kamchiliklari bor. Uni to‘g‘ri tushungan va ilmiy asoslagan holda foydalanish lozim.

Uchinchidan, “an’anaviy” va “noananaviy”ni uyg‘unlashtirgan holda “zamonaviy”ni kelib chiqishi bir muncha maqsadga muvofiq bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan “an’anaviy” va “zamonaviy” deyilishi “noan’anaviy atamasini kam darajada ishlatilishiga olib keldi. Fikrimizning isboti o‘laroq an’anaviy va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan dars haqida keyingi paragraflarda so‘z yuritiladi.

An’anaviy va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan darslarda tizimli yondashuv o‘z xususiyatini yo‘qotmagan holda, o‘quv maqsadlari tatbiqini tizimli ravishda amalga oshganligini ko‘rish mumkin. Chunki tizimli yondashuvli dars tahlili, metod va usullari ham ob’yektni yaxlit holida o‘rganishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashilgan dars tahlilining ob’yekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi. U, birinchidan, ob’yektni turli qismlarini; ikkinchidan, qismlarning o‘zaro bog‘liqligini; uchinchidan, tizimning chegaralarini va to‘rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog‘liqligini, aloqadorligini nazarda tutadi. Shunga muvofiq, tadqiqotga oid izlanishlarimiz mobaynida darsni kuzatuvchi o‘qituvchilarning 87 % deyarli dars jarayoniga yaxlit tizim sifatida qarash o‘rniga uning tashqi jihatlariga baho berishlari aniqlandi. Bunday holatda darsning mazmuni xususida yuzaki, ilmdan uzoq mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, dars tahlilida o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalarni qo‘llagani, videoproyektor orqali muhim qoidalar, formula yoki turli hil rasm va jadvallar ko‘rsatilgani ta’kidlab o‘tilsa-da, ulardan nima maqsadda, o‘zlashtirishning qaysi darajasiga muvofiq (reproduktiv, mahsulli, ijodiy-tadqiqiy) foydalanilgani va qanday samara berishi mumkinligi xususida gapirilmaydi. Bunday darslarni qanday qilib zamonaviy deyish mumkin?–degan savolimizga tahlilda ishtirok etayotgan o‘qituvchilarning aksariyati компьyuter va videoproyektordan foydalanib dars o‘tilganligini qayd etib o‘tishdi. Bu yerda maqsad va vazifalar yechimi, zamonaviy ko‘rsatmali vositalar bilan omuxta etilib ketganligini ko‘rish mumkin.

Yana bir muhim ilmiy-didaktik muammo o‘qituvchining o‘zini-o‘zi pedagogik talablar darajasida tahlil eta olmasligidir (3-ilovaga qarang). Tahlil jarayonida dars o‘tgan o‘qituvchining o‘ziga so‘z berilganda 83% yosh o‘qituvchi “nima ham der edim, darsni qo‘ldan kelgancha o‘tdim. Kamchiliklari bo‘lsa ko‘rsatarsizlar”,-deb javob berishdi. Vaholanki, o‘qituvchida o‘zini

o‘zi ilmiy asoslangan tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanganda edi, u, birinchidan maqsadni qanday qo‘yganligini, maqsad yechimida qanday yutuq va kamchiliklar yuzaga kelganligini hamda uning ob’yektiv va sub’yektiv mohiyatiga to‘xtalgan holda, kelgusida katta-kichik kamchiliklar yoki ayrim “metodik xato” deb topilgan jihatlarni bartaraf etish yo‘llarini o‘zi topgan holda isloh qilgan bo‘lar edi.

O‘qituvchi shaxsida refleksiv xususiyat, ya’ni “ichki men” to‘laqonli shakllanmasa, u o‘zini tahlil va taftish etishda qiynaladi. Bunday o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini ob’yektiv baholay olmaydi. Yana bir jihat, dars samaradorligiga erishish uchun u qanday maqsadlarga ko‘ra kuzatilishi va tahlil etilishi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim . Ana shunda o‘quv-biluv jarayoni va o‘qituvchi faoliyati to‘g‘risida yetarlicha xulosa chiqarish imkoni tug‘iladi.

Ta’kidlanganidek, dars aniq maqsad asosida va imkon qadar belgilangan grafikda yoki jadvalga ko‘ra o‘qituvchini oldindan boxabar etgan holda kuzatilishi, pedagogik odob qoidalariga muvofiq keladi. Dars kuzatuvi (tahlili)da tasodifan qatnashish, tahlil jarayonida tizimlilik va izchillikning yo‘qligi, maqsadning noaniqligi (74 %), tahlil metodikasini bilmaslik (71 %), o‘qituvchiga amaliy yordam ko‘rsatish o‘rniga asossiz bahs va noroziliklarning kelib chiqishi, dars sifati va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi. O‘qituvchilar jamoasida nosog‘lom muhitning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etgan holda o‘zaro darslarga kirish, tajriba almashish tizimli yo‘lga qo‘yilgan joyda o‘qituvchida qiziqish, bilmaganligini o‘rganish mas’uliyati ortadi. Dars o‘tayotgan o‘qituvchi ishchanlik kayfiyatida bor mahorati va tajribasini ishga solib, taqdimot materiallaridan unumli foydalanib o‘zini namoyish etsa, hurmatiga hurmat qo‘shiladi. Ruhan tetik o‘qituvchi izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi. Uning ish uslubi va pedagogik mahorati talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarni ortuviga, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlarini barqaror bo‘lishiga olib keladi. “Ustoz-shogird” maqomi shakllanadi.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosga qo‘yish masalasi maktabda direktorning, oliy ta’limda rektorning salohiyati bilan bog‘liq ekanligiga tadqiqotga oid kuzatuvlarimiz jarayonida yanada ishonch hosil qildik. Agar maktabda direktorning o‘zi ilmga qiziqmasa, ijodkorlikdan uzoq bo‘lsa, bir gap bilan aytganda o‘z ustida ishlamasa, ko‘proq boshqaruv-xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lsa, bunday maktabda dars saviyasi ham o‘ziga yarasha bo‘ladi. Talabchan direktor birinchi navbatda ijro intizomiga e’tibor qaratgan holda, dars jarayonining sifati hamda samaradorligini nazoratdan chetda qoldirmaydi. Qo‘l ostidagi o‘quv, ma’naviy-axloqiy ishlar bo‘yicha movunlariga ta’lim-tarbiya ishlari mazmuniga jiddiy e’tibor qaratishlarini talab qiladi. Xuddi shunday talab o‘qituvchilar jamoasi oldiga ham qo‘yiladi.

Mamlakatimizning barcha maktablarida fanlar kesimida metodik tadbirlar kuni belgilanib, hafta davomida ketma-ket taqsimlangan. Aytaylik, ona tili va adabiyot o‘qituvchilari uchun haftaning dushanba kuni, fizika o‘qituvchilari uchun seshanba va hokazo metodik kun deb ko‘rsatilgan. Ishlab chiqilgan grafik barcha maktablarga taqsimlangan. Belgilangan kunda fan o‘qituvchilari tegishli maktablarda yig‘ilishib, o‘zaro darslarga kirish, pedagogik va axborot texnologiyalari tatbiqimi, o‘zlashtirmovchilikning oldini olish bo‘ladimi yoki birinchi sinf o‘quvchilarini maktab sharoitiga moslashuvi (adaptatsiyasi) tartibi kabi ko‘plab o‘quv-metodik masalalarni muhokama etishadi, tajriba almashinib, seminar-treninglar o‘tkaziladi, tegishli xulosalar chiqariladi. Bu jarayonda hamkorlik rejasiga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari ham ishtirok etishadi. Birgalikda metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar tayyorlanadi. Bunday ijobiy ishlar yillar davomida oz bo‘lsada o‘z samarasini berib kelmoqda. Ammo bu jarayonni ham to‘laqonli ilmiy-metodik talablar darajasida takomillashib bormoqda deb bo‘lmaydi. Qolaversa, metodik kun belgilangan tayanch maktabda albatta, shu sohaning yaxshi, tajribali o‘qituvchilari ishlashadi (4-ilova). Bularning faoliyati ham ko‘pincha ikkinchi darajaga o‘tib qoladi. “Dars” so‘zi ortida qanchalik o‘qituvchining izlanishlari, mashaqqatli mehnati yotishini bilish lozim. Talabaning kelajak taqdiri samarali (yoki samarasiz) dars jarayonida ko‘zga ko‘rinadi. Darsni muqaddas bilib, har bir ijodiy darsni bir asarga qiyoslab, o‘z

vazifasini vijdonan, mas’uliyat ila bajaradigan ustozlar mehnati, albatta, e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Zamonaviy darslar, unga qo‘yiladigan talablardan maktab rahbarlari albatta boxabar bo‘lib borishlari lozim. Rahbar o‘z ustida ishlasa, ijodkor bo‘lsa, ilmiy-nazariy axborot hamda yangi adabiyotlarni o‘qib-o‘rganib ta’lim amaliyotiga joriy etib borsa, bunday rahbar o‘zi uchun maktab yaratadi, ko‘plab shogirdlar tayyorlab, el-xalq oldida obro‘si baland bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat.-T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2010.-160 b.
2. Abdukarimov H. Dars tahlili va uning metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma.- T.: Mumtoz so‘z, 2010.-40 b.
3. Azizxo‘jayeva N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent.: O‘qituvchi,1992. -160 b.
4. Abdukarimov H, Suvonov O. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv metodik qo‘llanma.-T.: Mumtoz so‘z, 2010.-75 b.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq - T.: O‘qituvchi, 1992. - 160 b.
6. Alimov A.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida innovasion faoliyatga tayyorlash. ped. fan. (PhD) diss.aftoref.., Toshkent -2018, 65-70 b